



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «11» август

VI-49-117-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**“Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho'rchi tumani bo'limi qoshida
ochilgan “Saxovat va ko'mak” jamg'armasiga tushgan mablag'larning
sarflanishi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-sonli farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho'rchi tumani bo'limi qoshidagi “Saxovat va ko'mak” jamg'armasiga tushgan mablag'larni, fuqarolardan tushgan murojaatlarga ko'ra ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan, oilaviy sharoiti og'ir fuqarolarga ko'maklashish maqsadida deputatlarning fikr-mulohaza va takliflarini inobatga olgan holda xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-sonli va shu haqidagi tuman hokimining farmoyishlariga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho'rchi tumani bo'limi qoshidagi “Saxovat va ko'mak” jamg'armasiga tushgan mablag'larning sarflanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi rahbarligida o'tkazilgan sayyor qabullardagi murojaatlar va tuman hokimi va xalq deputatlari tuman Kengashi raisi nomiga fuqarolardan tushgan yozma murojaatlarni inobatga olib, ilovadagi ro'yxatga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan, oilaviy sharoiti og'ir 21 nafar fuqaroga moddiy yordam hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxiatosh tumanidagi kam ta'minlagan oilalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minalash maqsadida tumandagi “Oftabmakon Parranda” oilaviy korxonasi hisob-raqamiga;

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan 2017-2019 yillar Dasturi bo‘yicha nogironligi bo‘lgan fuqarolarga ajratilgan imtiyozli ipoteka kreditlari bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorligini to‘lab berish bo‘yicha “Ayollar daftari”ga kiritilgan kam ta’minlangan oilalar farzandlarini “Mirob” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi hisob-raqamiga hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarga o‘z-o‘zini band qilish maqsadida 75 dona tikuva mashinasi olib berish uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan 422 mln. 425 ming so‘m ajratilsin.

3. “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘larning sarflanishi xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi va tegishli doimiy komissiya yig‘ilishlarida muhokama etib borilsin.

4. “Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho‘rchi tumani bo‘limi (SH.Safarov)ga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan ajratilayotgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazib berish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririysi (B.Elmurodova) ommaviy axborot vositalarida “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo‘ranov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman
Kengashining
2022 yil 11 avgustdagি
VI-49-117-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidadan moddiy yordam

ko‘rsatiladigan fuqarolar ro‘yxati

T/r	F.I.O	Mahalla nomi	Murojaatning qisqacha mazmuni	Moddiy yordam miqdori (mln.so‘m)
1.	Toshboeva Gavhar	Xayrobod mfy	Turmush o‘rtog‘ini davolatish uchun	10.0
2.	Mengnorov Shuxrat	Olatemir mfy	Davolanishi uchun	2.0
3.	Boymurodova Sarvinoz	Katta-savur mfy	Davolanishi uchun	3.0
4.	Ochilova Dilbar	Go‘zallik mfy	O‘g‘lini davolatish uchun .	2.0
5.	Turapov Isoq	Obodon mfy	Davolanishi	2.0
6.	Urolova Diloram	Do‘stlik mfy	Davolanishi uchun uchun	1.5
7.	Saidova E’tibor	Bobur mfy	Davolanishi uchun uchun	2.0
8.	Turdieva Nigana	A.Navoiy	Davolanishi uchun uchun .	4.0
9.	Toxirova Muxlisa	Navro‘z mfy	1 martalik modiy yordam uchun	3.0
10.	Sottarov Erkin	Joyilma mfy	Davolanishi uchun uchun	4.6
11.	Mamatmo‘minov Jalg‘ash	Katta savur mfy	Davolanishi uchun	4.6
12.	Yuldoshev Begzod	Tolli mfy	Davolanishi uchun	1.0
13.	Xolmo‘minov Abdurasul	Kushon mfy	Davolanishi uchun	1.0
14.	Yuldasheva Fazilat Anvarovna	Navro‘z mfy	Davolanishi uchun	2,0
15.	Choriyeva Bog‘dagul	Do‘stlik	Davolanishi uchun	1,5
16.	Alimova Gulbaxor	Navoiy	Davolanishi uchun	1,5
17.	Odinayeva Saboxat	Yalti	Turmush o‘rtog‘ini davolash uchun	1,5
18.	Shermuradova Dilshoda	Olatemir	Davolanishi uchun	1,5
19.	Sheraliyeva Iroda	Xayrobod	Farzandini davolatish uchun	1,5
20.	Xusanova Shozoda	Navoiy	Davolanishi uchun	2,0
21.	Karimova Dilfuza	Navro‘z	Davolanish uchun	2,0
22.	Oftabmakon Parranda oilaviy korxonasi	Shartnoma 45.6.07.2022 yil “Oftabmakon Parranda” oilaviy korxonasi Shartnoma 45.6.07.2022 yil x/r 20208000905352053001 Xalq banki, INN 308247968 MFO 00750	Qoraqlpog‘iston Respublikasining Taxiatosh tumanidagi kam taminlagan oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashda	23.6
23.	Tumandagi kam ta’minlangan nogironligi bo‘lgan fuqarolarga	Tuman ATB “Qishloq qurilish” bani xisob raqamiga 117 mln.131 ming so‘m, Qumkurg‘on ATB“Milliy”bank xisob raqamiga 11 mln. 660 ming so‘m	Tijorat banklari tomonidan 2017-2019 yillar Dasturi bo‘yicha nogironligi bo‘lgan fuqarolarga ajratilgan imtiyozli ipoteka kreditlari bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorligini to‘lab berish bo‘yicha.	128.8

24.	Tumandagi «Ayollar daftari»ga kiritilgan kam ta'minlangan oilalar farzandlariga	Shartnoma 19/07.19.07.2022 yil asosan x/r 2021200050056456001,ATB Agrobank Denov filiali,MFO 00360,INN 201435891	“Mirob” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohiga.	28.0
25.	Tumandagi «Ayollar daftari»ga kiritilgan Ayollarga o‘z o‘zini band qilish maqsadida	Shartnomada ko‘rsatilgan hisob raqamga	75 dona tikuv mashinasi olib berish uchun.	99.8
26.	Tumandagi «Ayollar daftari»ga kiritilgan Ayollarning uy joylarini ta‘mirlash maqsadida.	“Sadaf Nur Shurchi” MCHJ shartnoma 1.28.06.2022 yil x/r 20208000100471464001 ATIB IpotIpoteekabank MFO 00356 ,INN INN 303344811	Qurilish mollari olish uchun	80.0
27.	Uy-joysiz, ishtimoiy himoyaga muhtoj ijaraga turuvchi ayollarni ijara kompensatsiya to’lovi uchun	Shartnomada ko‘rsatilgan hisob raqamga	6 ta ijarachi	8.0